MIGRATSIYA JARAYONIDA BOLALARNI HIMOYALASH VA HUQUQLARINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MEHANIZMLARI

Gulmurodova Sevinch
GDPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yonalishi talabasi
Isaxova Shahlo Muxtarovna
Guliston davlat pedagogika instituti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada millionlab odamlar uchun hayot strategiyasiga aylangan mehnat migratsiyasining bola huquqlariga ta’siri,migratsion jarayonda bola huquqlarini ta’minlashning ijtimoiy-huquqiy mehanizmlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Migratsiya,mehnat migratsiyasi, bola huquqlari, YUNISEF, ruhiy farovonlik.

O‘zbek xalqi o‘z hayotini bolasiz tasavvur qila olmaydi va bolajonligi bilan ajralib turadi. Shu bois keyingi yillarda yurtimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro darajadagi asosiy hujjat “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”[1] hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qildi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”[2]gi qarori bola huquqlarini himoya qilishda muhim qadam bo‘ldi.

Biz bilamizki, yurtimizda bola huquqlarini to‘la ta’minlanishiga to‘sqinlik qilayotgan qator omillar mavjud. Bu dolzarb masalalardan biri migratsiya jarayonidir. UNISEFning hisobotiga ko‘ra, dunyoning boshqa mintaqalariga nisbatan migratsiya ta’sir ko‘rsatgan bolalarning eng katta ulushi Osiyoga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi millionlab odamlar uchun hayot strategiyasiga aylanib qoldi. O‘zbekistonda migrant ota-onaning farzandlari ko‘pincha vasiylar vazifasini bajaruvchi qarindosh-urug‘lar oila a’zolarining qaramog‘ida qoladilar. Bunday bolalar rivojlanish nuqsonlari, psixologik va hissiy muammolarga duch kelishi mumkin, bunda ota-onalarning safardaligi bolaga g‘amxo‘rlik qilishda muammolar tug‘diradi. Ota-onalarning mehnat migratsiyasi bolaning ta’limi, sog‘lig‘i va ijtimoiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatilmoqda. Ota-onalarning safarda bo‘lishi bolaning ovqatlanishi, ta’lim olish darajasiga salbiy ta’sir qilishi hamda depressiya holatini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan uy yumushlari uning zimmasiga yuklatilgan. Bu ijtimoiy xolatlar jamiyatga kuttirmasdan tezda o‘z oqibatni beradi. Migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini tan olish, vasiylar qaramog‘ida qolgan bolalarga ota-onalar mehnat migratsiyasining salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan, dalillarga asoslangan siyosiy va qonuniy dasturlarni qabul qilishdagi muhim qadamdir. Shu o‘rinda ota-onalar mehnat migratsiyasining asos tushunchasi migratsiyaga ta’rif bersak. V.D Samaylov: “migratsiya- odamlar harakatlanishi, oila, jamiyat va davlat manfaatlariga bonoan yangi fuqarolik huquqiy maqomni qo‘lga kiritish bilan bog‘liq niyatlarini amalga oshirishda shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa”[3], deb tarif bergan. Xalqaro va xorijiy tajribaga ko‘ra bolalar va yoshlar huquqlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ombudsmanlar faoliyati, bolaning manfaati yo‘lida davlat boshqaruvini takomillashtirish, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalar erkinligi va huquqlariga nisbatan hurmat darajasini oshirishga ko‘maklashadi

2018-yil dekabr oyida YUNISEF va Yevropa ittifoqining “Janubi-sharqiy, janubiy va markaziy Osiyoda migratsiya ta’siriga uchragan bolalarni himoya qilish”[4] mintaqaviy loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha tashabbuskorlari hamkorlikda ota-onalarning mehnat migratsiyasi sababidan ota-ona nazoratisiz qolgan bolalarga ta’sirini o‘rganish maqsad qilindi. Bunda ota-onaning biri yoki ikkalasi uzoq vaqt davomida safarda bo‘lishi yolg‘iz qolgan bolalar orasida ta’lim olish, rivojlanish va psixologik-ijtimoiy farovonlik darajasiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’sirini aniqlashga harakat

qilindi. Bu loyihani amalga oshirish jarayonida ko‘p o‘lchovli kontekstdagi o‘zgarishlarni kuzatish maqsadida O‘zbekistonning Buxoro, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlarini o‘z ichiga olgan to‘rt hududda (shahar va qishloq joylarida) “Migratsiyaning bolalarga salbiy ta’siri” deb nomlangan tadqiqod o‘tkazildi.

Ushbu tadqiqod 1016 nafar katta yoshdagi vasiylar va migrant oilalarga mansub bo‘lgan 702 nafar bolalar (11-17 yosh) ishtirokidagi sotsiologik so‘rov, hamda vasiylar, bolalar(15-17yosh) va xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar ishtirokidagi 12-fokus guruhi muhokamalari o‘tkazildi. Shuningdek turli xil davlat va jamoat tuzilmalari vakillari bilan o‘tkazilgan 16 ta ekspert intervyularni o‘z ichiga olgan miqdoriy va sifatli ma’lumotlarni to‘plash jarayoni asosida amalga oshirildi. Ma’lumot to‘plash mahalliy Al Mar Consulting agentligi tomonidan 2019-yil mart oyida o‘tkazildi. Tadqiqot uchun ma’lumot yig‘ish quyidagi me’zonlarga javob beradigan muxojir oilalar farzandlariga g‘amxo‘rlik qiladigan 1016 ta oilalar va shaxslarni qamrab oldi:

-Har bir oilada 18 yoshgacha kamida bitta farzand bo‘lgan.

-Bolaning va bolalarning ota-onalaridan kamida biri xozirda chet elda mehnat muhojiri bo‘lgan.

-So‘nggi uch oy ichida bolalarning migratsiyadan qaytgan ota-onasi bo‘lgan.

Ushbu tadqiqodlar natijasiga ko‘ra bir qator migratsiyaning salbiy ta’siri aniqlandi. Bolaga g‘amxo‘rlik qilishga nisbat olinganda O‘zbekistonlik mehnat muhojirlarining aksariyatining farzandlari bo‘lishiga qaramay, ular yolg‘iz o‘zlari migratsiya qilishni afzal ko‘radilar. Ko‘p hollarda bolalarni ota-onaning biri yoki bironta qarindoshining nazorati ostida qoldiradilar yoki ba’zi hollarda ularni internat shaklidagi muassasalarga joylashtiradilar. Otalar mehnat migratsiyasida bo‘lganda, onalar odatda bolalarning asosiy homiysi, parvarishlovchisi hisoblanadi. Ota-onanig har ikkovi migratsiya qilgan hollarda qarindoshlarning vasiy sifatida jalb qilinishi eng keng tarqalgan holatligini kuzatish mumkin. Ko‘p hollarda, qarindoshlar tomonidan ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik bolalar uchun eng xavfsiz va barqaror muhit sanaladi. Biroq bunday vasiylik qonuniy ravishda rasmiylashtirilmaydi yoki tegishli organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Vasiylar iqtisodiy muammolarga duch kelgan holatlarda, bolalar beparvolik, ekspluatatsiya va tahqirlashnish xavfi ostida qoladilar.

Bolalarning psixologik holati ta’siriga nisbat olinganda, oiladagi vaziyatdan qat’i nazar, bolalarning aksariyati migratsiya paytida ota-onalarni sog‘inadilar. Tadqiqod natijalari shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning mehnat migranti sifatida bir davlatdan boshqa davlatga ketishi bolalarning emotsional farovonligiga eng jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqod shuni ko‘rsatdiki otalar migratsiyasi bolalarning emotsional farovonligini eng past ko‘rsatkichga olib tushadi. Otasiz yashagan bolalarning aksariyatida kayfiyatning tushishi va g‘amginlik hissi vujudga kelishini tadqiqotda qayd etishdi. Bundan tashqari, kam ta’minlangan oilalarda ota-onalarning safarda uzoq vaqt bo‘lishlari ham bolalarning hissiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar ota-onalarini qo‘msagan hollarda, ular stress holatiga tushib, bu o‘z navbatida ularning kayfiyatlari va fe’l - atvorlaridagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi va bolalarning psixologik farovonligining boshqa jihatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarning himoyasi va farovonligiga ta’siriga nisbat olinganda ota-onalar migratsiya qilib, o‘z farzandlarini tashlab ketishga majbur bo‘lganlarida, ularning farovonligi va himoyasiga jiddiy ziyon yetadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vasiylar odatda bolalarni tarbiyalash va nazorat qilishning turli usullaridan foydalanadilar. Bolalarning 7% ga yaqini jismoniy jazolardan, 3% oiladagi zo‘ravonliklardan va 6% maktabdagi tahqirlashlardan aziyat chekadi.

Bolalarning uchdan bir qismi ota va onasining mehnat migratsiyasidan so‘ng o‘z zimmalariga uy yumushlari, aka-uka va opa-singillarga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha majburiyatlarni oladilar. Bolalarning o‘zlari qo‘shimcha yumushlarni o‘qish yoki hayotning boshqa sohalariga halaqit beradigan omillar qatoriga qo‘shmaydilar. Shunga qaramay, tahlil shuni ko‘rsatadiki, uy yumushlari ko‘lamining kengayishi bolalarning kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar va ularning oilalasidagi kata vakillar uchun mehnat migratsiyasining darajasi va uning oqibatlarini tushunish uchun O‘zbekiston hukumatidan ko‘proq ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazilishi talab etiladi. Internat shaklidagi muassasalarga joylashtirilgan

migratsiya ta'siriga uchragan bolalar hamda zo'ravonlik, kamsitish qurbonlari bo'lgan bolalarga alohida e'tibor qaratilishi shart xisoblaymiz.

Adabiyatlar:

1. https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka
2. https://lex.uz/docs/-4831107
3. Самайлов В. Д. Миграциология. Конституционно- правовые аснови: монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2015. - С.54.
4. https://www.unicef.org/uzbekistan/media/4346/file/%D0%B7%D0%B0%D1%89%D0%B8%D1%82%D0%B0%20%D0%B4%D0%B5%D1%82%D0%B5%D0%B9%20-%20%D0%BC%D0%B8%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F%20(%D1%83%D0%B7%D0%B1).pdf